

**OLAM MANZARASI VA KONSEPT MILLIY-MADANIY
XUSUSIYATINING ISPAN, TURK VA O‘ZBEK TILLARI
FRAZELOGIZMLARIDA IFODALANISHI**

Nurmuxammedov Yusuf Shakarboyevich

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Samarqand davlat chet tillar
institute nurmuxammad.yu@gmail.com Samarqand, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada olam manzarasi tushunchasi, til va madaniyat munosabatlariga yondashuvlar, emotsional konseptning milliy-madaniy xususiyatlari turli tizimli tillar frazeologizmlarida gvdalanishini maydon metodi orqali yoritiladi

Kalit so‘zlar: olam manzarasi, konsept, qo‘rquv, assosatsiya, konseptual yondashuv

Ma‘lumki, til yordamida insonning dunyoqarashi shakllanadi va uning madaniyati asoslari yaratiladi, ya‘ni til xalqning atrof borliq haqidagi mifologik, diniy, madaniy va hakoza g‘oyalarini aks ettiruvchi madaniyat ko‘zgusi sifatida tushuniladi. Zamonaviy tilshunoslikda lingvistik birliklar konseptual tomonining mohiyati, kognitiv mazmunning namoyon bo‘lish xarakteri, nutqiy ifoda qo‘llanishining semantik asoslari va ularning o‘zaro uyg‘unligi kabi muammolar jadal muhokama qilinmoqda hamda ayrim lisoniy birliklarning qo‘llanish qonuniyatlarini asoslash zarurati tufayli semantika muammolari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

XX-asrning so‘nggi o‘n yilligi va XXI-asrning birinchi dekadasi tilning umumiy nazariyasiga taalluqli bo‘lgan lingvistik mexanizmning tub qonuniyatlari masalalariga qiziqish jonlanishi, konseptual tuzilmalar va nutqiy ifodaning leksik ma‘nosini o‘rganish metodologiyasi bilan bog‘liq qator muammolarning birinchi o‘ringa chiqishi, natijada, lingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida kognitiv, xususan, konseptual tadqiqotlar markaziy o‘rin egallashi, tilshunoslikning konseptual va metalingvistik apparatiga subyektning obyektiv yoki tasavvur qilinadigan voqelik haqidagi bilimlari va fikrlari yig‘indisini ifodalovchi *olam manzarasi* atamasining kiritilishi bilan ajralib turadi.

Olam manzarasi atamasini ilk bor fizik G.Gertz taklif qilgan bo‘lib, uni tashqi obyektlarning ichki tasvirlari yig‘indisi sifatida ta‘riflagan. Keyinchalik ushbu atama ijtimoiy fan sohalarida K.Yaspers va L.Vitgenshteyn, shuningdek, L.Vaysgerber tomonidan qo‘llaniladi. Olam manzarasini lingvistik jihatdan dastlabki o‘rganishlar V. fon Gumboldt, E. Sapir, B. L. Whorf, A. A. Potebnya amalga oshirilgan deb

qaraladi. Olam manzarasining maqomi muammosi til, tafakkur va voqelikning o‘zaro ta’siri masalalari bilan bog‘liq. V. fon Gumboldt tilni inson va dunyo o‘rtasidagi “oraliq bo‘g‘in” deb hisoblasa, A. A. Potebnya fikricha, she’riyat, nasr, badiiy va ilmfan, ya’ni xalq dunyoqarashi til bilan shartlanadi. Shunday qilib, V. fon Gumboldt, G. Xerder, J. Grimm, F. Shlegel asarlari, E. Sapir - B. Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasida til dunyoni ko‘rish usuli yoxud “oraliq dunyo” sifatida talqin etiladi.

Olam manzarasini shakllantirishda tilning o‘rni muammosiga ikki xil nuqtai nazar mavjud. Eng muxtasar shaklda birinchisiga ko‘ra, til dunyoni aks ettiradi. [4,110]. Ikkinchi nuqtai nazar tarafdorlari til voqelikni aks ettirmasligi, balki uni ramziy tarzda gavdalantirishi”ni iddao qiladi, ya’ni til ma’lum bir vosita bo‘lib, uning yordamida inson dunyoni konseptuallashtiradi [5, 6].

Bizni o‘rab turgan atrof-borliqning ongda mavjud bo‘lgan manzarasi va tilda mustahkamlangan tasvir o‘rtasidagi munosabatlar masalasini ko‘tarish dunyo manzarasining ikkita shaklini aniqlashga yordam berdi - konseptual yoxud kognitiv va lingvistik. Dunyoning bu ikki manzarasini birinchi bo‘lib aniq ajratganlardan biri G. A. Brutyan edi. Uning fikricha, dunyoning lingvistik va konseptual manzaralarini ajratish bilish jarayonida til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni ochib berishga, kishilar ongida dunyo manzarasini shakllantirishda tilning rolini ko‘rsatishga, dunyoning haqiqiy manzarasini qayta yaratishda sxematiklikka yo‘l qo‘ymaslik va ongimizda atrofda voqelikning proektsiyasini to‘liqroq taqdim etish imkon beradi [1, 108]. Dunyoning lingvistik manzarasini va konseptual tuzilmalarini o‘rganishda xalqning madaniy konnotatsiyalarini bilish muhim ko‘rinadi. Bilimlar tizimi va konseptual tuzilmalar o‘zgarishiga ma’lum bir jamiyatda qabul qilingan din ta’sir ko‘rsatadi.

G. A. Brutyan dunyoning *konseptual manzarasini* “nafaqat voqelikning aqliy aks etishi natijasida paydo bo‘ladigan bilim, balki mantiqiy bilimda sublatsion shaklda mavjud bo‘lgan hissiy bilimlarning natijasi, *lingvistik manzara* - bu jonli, so‘zlashuv tillari orqali mustahkamlangan tashqi va ichki dunyo haqidagi barcha ma’lumotlardir” deb ta’riflaydi [1, 108].

Bu ikki atama bir-biridan ajratilgandan so‘ng, tilshunoslik dunyoning konseptual va lingvistik manzaralari o‘rtasidagi munosabat masalasini ko‘taradi va bu muammoga nisbatan *uchta yondashuv* shakllanadi.

Birinchi yondashuvga ko‘ra, dunyoning lingvistik manzarasi konseptualga qaraganda kengroq hisoblanadi. G.A. Brutyanuning ta’kidlashicha, dunyoning konseptual manzarasi dunyoning lingvistik manzarasining «o‘zagi, asosiy qismi» bilan mos

keladi, ya'ni "dunyo lingvistik modelining asosiy mazmuni dunyoning konseptual modelining butun mazmunini qamrab oladi".

Dunyoning konseptual manzarasidan tashqarida dunyo haqida qo'shimcha ma'lumot tashuvchisi sifatida ishlaydigan periferik hududlar mavjud. Bundan tashqari, dunyoning ham konseptual, ham lingvistik manzarasiga kiritilgan ma'lumotlar, u qaysi tilda ifodalanganidan qat'iy nazar, o'zgarasdir va dunyoning lingvistik manzarasining periferik sohalorida, ya'ni dunyodan tashqarida qolgan sohalarda mavjud bo'lgan ma'lumotlar konseptual manzara, tildan tilga farq qiladi [1, 109-110]. Ikkinchi yondashuv dunyoning lingvistik va konseptual manzaralarining mos kelishi va o'ziga xosligini tasdiqlaydi. G.V.Kolshanskiy «dunyoning lingvistik manzarasi dunyoning obyektiv manzarasining ikkinchi darajali mavjudligi» [2, 40] deb tan olsa ham, bunday ikkinchi darajalilik tilning tafakkurga tubdan bog'liqligini bildiradi.

Uchinchi konseptsiyaga ko'ra, dunyoning konseptual manzarasi lingvistikadan kattaroq deb tan olinadi. Bunday yondashuv ko'pchilik tilshunoslarning asarlarida mavjud (Pocheptsov 1990, Serebrennikov 1988, Telia 1988). G. G. Pocheptsov dunyoning lingvistik manzarasi «axborot jihatdan to'liq emas va / yoki noto'g'ri» ekanligini ta'kidlaydi va buning sababini «bir butun dunyo emas, balki faqat uning qirralari (cho'qqilari) aks ettirilishida» ko'radi, ular so'zlovchiga eng muhim, eng dolzarb, dunyoni to'liq tavsiflovchi sifatida ko'rinadi» [4, 111-112].

Olam manzarasi atamasi butun dunyoni tasvirlaydigan, inson va insoniyat o'z o'rnini aniqlashga intiladigan tasvir va tushunchalarni anglatadi. Insonga koinotda ma'lum bir joy ajratadigan va shu bilan uning mavjudligini yo'naltirishga yordam beradigan dunyo rasmlari odamlarning ma'naviy va amaliy faoliyati natijasidir. Dunyo manzarasi ko'p qatlamli shakllanishdir. Dunyoning ilmiy, diniy va falsafiy manzaralari dunyo va undagi insonning o'rnini haqidagi o'z qarashlarini tavsiflaydi. Dunyoning ilmiy manzarasi insonlarga bog'li bo'lmagan holda olamni qanday bo'lsa, shunday tasvirlashga intiladi. Dunyoning diniy manzarasi markazida samoviy va yerdagi, inson va ilohiylik olamlari o'rtasidagi munosabatlari o'rin egallaydi. Dunyo falsafiy manzarasining asosiy mavzusi inson va dunyo o'rtasidagi munosabatlar, barcha jihatlar: ontologik, gnoseologik, qadriyat, faoliyat kabilarni qamrab oladi. Dunyoning folklor manzarasi lisoniy shaxs dunyosining konseptual manzarasi uchun asos yaratadi. Odat tufayli ona tilimizda aks etgan dunyo manzarasini sezmay qolamiz. O'zga madaniyat dunyosining manzarasini ona tili prizmasidan ko'rish mumkin. Biz o'zimizning dunyo manzaramizning xususiyatlarini o'zga millat tilidagi olam manzarasi bilan taqqoslagandagina sezamiz. So'zlarning semantik o'ziga xosligi ularning konnotatsiyalar sohasida namoyon bo'ladi. Ko'pgina denotativ

periferik xususiyatlar o'ziga xos mazmuniga ko'ra, hissiyot va baholash bilan chambarchas bog'liq. Olamning o'xshash manzaralari turli tillarda uchraydi. Bu o'xshashlik umumiy madaniy voqeliklar, umumiy tarix, mifologiya va din bilan bog'liq. Dunyoning lingvistik va konseptual manzaralaridagi nomuvofiqliklarni kuzatish alohida qiziqish uyg'otadi.

Til fani taraqqiyotining hozirgi bosqichida birlamchi muammolardan biri til va madaniyatning umumiy ontologik platformasini aniqlash muammosi deyish mumkin. Buning uchun lingvistik birliklarni olam manzarasining bilimlari va tarkibiy qismlarini, xususan, ona tilida so'zlashuvchilar dunyosining lingvistik manzarasini saqlash va uzatish vositasi sifatida o'rganish ushbu tilda gapiradigan odamlarning mentalitetini ochib beradi.

Psixologik fenomen sifatida emosiya hosil bo'lishining zamirida faoliyat yotadi. Psixologik tasniflanishga ko'ra ularning bazaviy va periferik kategoriyalari farqlanadi. Turli tillarda ifodalangan emosiyalarni qiyoslash asosida o'tkazilgan tadqiqotlar *g'azab, quvonch, g'am, qo'rquv* emosiyalarini universal hodisa sifatida ajratdi (Изард 1980; Ekman, Friesen 1981:79-80; Красавский 2001:33). Inson emosional holatlarining turli lingvomadaniy jamoalarda muayyan rivojlanish bosqichidagi tamaddun va madaniyat, atrof-borliqni bilish va dunyoqarashning o'ziga xos verbal belgisi tavsiflanishi, mavjud madaniy talablardan kelib chiqib *Homo sapiens*larda namoyon bo'lishi ularning milliylikka xos xususiyatlari sanaladi.

«Qo'rquv» emosional konseptini ifodalovchi *qo'rquv* leksemasi qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan “qo'riqla” ma'nosini anglatuvchi *qorы* fe'lidan kelib chiqqan. *Qo'rquv* leksemasining sinonimik qatorini “vahima”, “dahshat”, “vahshat” so'zlari tashkil etadi. “Botirlik” va mazmun planiga ko'ra unga eng yaqin so'zlar “qo'rqoqlik”ning zidlari bo'ladi. Emosiyalar konseptuallashtiruvchi o'zbek, turk va ispan tillari frazeologizmlari misolida ko'rib chiqamiz:

a) emosional kechinmalarning bevositaligi yoki his-holat: *aqldan ozmoq, yuragi qon bo'lmoq*; turkcha: *kan tutmak; ecel teri dökme*; ispancha: *con el corazón encogido*;

b) subyektning obyektga munosabati yoki his-munosabat: *jon dilidan yaxshi ko'rmoq, xayoldan ketmadi, yurakka yaqin olmoq*; turkcha: *gözünü korkutmak, pabucu ters giydirmek, tavşan yürekli*; ispancha: *cortarle a uno la transpiración, levantar ampolla, dar la espantada*.

Inson holatini anglatuvchi frazeologizmlarni quyidagicha frazeo-semantik guruhlarga ajratishimiz mumkin:

1. Insonning jismoniy holatini anglatuvchi (ozg'inlik, affektatsiya va hok.): *labiga uchuq toshdi*, ispancha: *dar un respinga, dar saltitos*,

2. Insonning ruhiy holatini anglatuvchi (tana organlari faoliyati buzilishi, ruhning xotirjamligi va hok.): *yuragi po'killamoq, ichini mushuk tatalayapdi* ispancha: *encogérsele a uno el ombligo, engurruñirsele a uno el ombligo por una cosa*

Qo'rquv semasini ifodalovchi frazeologizmlar quyidagi fraze-semantik maydonlarga ajratish mumkin: a) ichki organlar makoni o'zgarishi: *юрагини олиб қўймоқ, юраги чиқиб кетди, юраги орқага тортиб кетди, юрагини ёрмоқ*; ispancha: *no quedarle sangre en el cuerpo (en las venas) a uno, encogérsele a uno el ombligo*; b) tana organlari faoliyati va ritmining o'zgarishi: *юраги пўкиллаб юрмоқ, юраги такапука*; c) yuz rangining o'zgarishi: *юзи докадек оқариб кетди*; d) vujud va uning qismlari muzlashi, qotishi: *тили танглайига ёпишиб қомоқ; совуқ тер босмоқ; Кўрқоқ аввал тилдан қолади*; ispancha: *entrársele el habla a uno, caer uno sin habla, quedar(se) mudo, entrársele el habla a uno*; e) fikr yuritish buzilishi: *эси чиқиб кетмоқ; Кўрқоқнинг ақли шошар; Кўрқоқнинг ақли шошар, йигит майдонда тошар*; f) qaltirash, defekatsiya: *ичи ўтиб кетмоқ, иштонини хўллаб қўймоқ; кўрқувдан оёқлари қалтирамоқ*; j) ruh makonining o'zgarishi: *Жони халқумига келмоқ; жон-пони чиқиб кетмоқ*; ispancha: *cortarle a uno la transpiración*; h) zohiriy harakatlar: *Кўрқоқ олдин мушт кўтарар; Кўрқоқнинг одаму – мақтанмоқ*; ispancha: *meter uno detrás las orejas*; k) ko'rish faoliyatining buzilishi: *кўрққанга қўш кўринар*; ispancha: *la horca antes que el lugar*

«Tilni assotsiativ yo'nalishda o'rganish insonning tildan foydalanish jarayonida tafakkurning ko'z ilg'amas faoliyati haqida qiziqarli bilimlar berishi shubhasiz» [3,7].

Qo'rquv emotsiyasini ifodalash uchun quyidagicha assosiyativ bog'lanishlar kuzatildi: a) hashoratlar: *капалаги учмоқ*; b) hayvonlar. *қуён юрак; қуён бўлмоқ; қуённинг иини ижарага олмоқ; Қочган қуён ётган қуённи ола қочар; Бир кўрққан қуённинг қирқ кунгача ҳам ранги кирмайди; Қуён кўрқмайди – ўзини сақлайди; Қуён ўз қўланкасидан ҳам кўрқар*; ispancha: *cobarde como una hormiga, tener uno más miedo que un ratón, cobarde como una mona, más cobarde que una lagartija, más asustadizo (cobarde, tímido) que una rata, más asustadizo (cobarde, tímido) que una liebre*; c) kemiruvchilar: *арслоннинг бўқиргани – сичқоннинг ўлгани; Сичқон назарида мушукдан зўр махлуқ йўқ; Сичқонга мушук арслон*; ispancha: *asustadizo (cobarde, tímido) como un ratón*; d) parrandalar: *қирғий учса, чумчуқни ёриқда кўр; Юз қаргага – бир кесак; Юз қаргага бир шунқор кифоя*; ispancha: *más encogido que pájaro en invierno, hacer*

la gallina uno; e) o'lim: qўrqoq ўlmasdan burun ўлади; Kўrqoq ўlmasdan burun ўлар, ўликдан нима кутиб бўлар; Kўrqoqни ажал қувлар; ispancha: caerse muerto (morirse) de miedo, estar (quedarse) uno más muerto que vivo; f) to'qimachlik materiali: ispancha no llegarle a uno la camisa al cuerpo; j)mifologik, tarixiy shaxslar: ispancha: estar con el Jesús en la boca; turkcha: Demoklesin kılıcı, o'zbekcha: aju-buji kelmoq va hok.

Keltirilgan frazeo-semantik maydonlardan qo'rquv emotsiyasining fiziologik namoyon bo'lishi inson tomonidan nazorat qilinmasligi; frazeologizmlar obrazli asosi fiziologik his qilish va mimika, imo-ishora, harakatlar bilan ifodalangan g'ayrisha harakatlarni aks ettirishi; semantik guruhlar o'zida quyidagi denotatlar: yurak, oyoq, til, yuz, suv va hokazo konkret predmetlarni birlashtirishi xulosa qilindi. Mavhum predmetlar faoliyati ta'siri inson tanasidagi muayyan makon va hodisalarda voqe bo'ladi, ushbu jarayonlarni til yordamida tasvirlash orqali mavhum predmetlar idiomatik nomga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Брутян Г.А. Язык и картина мира // Философские науки. М., 1973. № 1
2. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. М.: Наука, 1990. 103 с
3. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. – Тошкент, 2017.-140 б
4. Почепцов О.Г. Языковая ментальность: способ представления мира. Вопросы языкознания 1990. №6, 110-122
5. Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира / Б.А. Серебренников, Е.С. Кубрякова, В.И. Постовалова. Москва: Наука, 1988. – 216 с
6. Испанско-русский фразеологический словарь: 30000 фразеологических единиц/Э. И. Левинтова, Е. М. Вольф, Н. А. Мовшович, И. А. Будницкая; Под ред. Э. И. Левинтовой. — М.: Рус. яз., 1985. — 1080 с.
7. Сулейманова, Н. М. (2017). Номинативный аспект речевого процесса. In Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives (pp. 76-82).
8. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати (Ш.Рахматуллаев ва бошқ). - Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978.- 407 б
9. Ömer A.A. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. Istanbul: “İnkilap”, 2017. – 486.